



THE HISTORY OF JAPAN DURING THE ASHIKAGA SHOGUNATE THROUGH THE EYES OF RUSSIAN RESEARCHERS

M. Ergasheva

Master's student

National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Japan, Ashikaga shogunate, bakufu, samurai, codification, emperor.

Received: 26.12.24

Accepted: 28.12.24

Published: 30.12.24

Abstract: This article is devoted to the historiography of medieval Japan. It analyzes the scientific works of Russian Japanese scholars devoted to the history of the second shogunate, the Ashikaga (Muromachi) dynasty, which occupied a special place in the history of medieval Japan, from the point of view of historiography. At the same time, the specific aspects of the modern historiography of the subject are shown.

YAPONIYANING ASIKAGA SYOGUNLIGI DAVRI TARIXI ROSSIYA TADQIQOTCHILARI NIGOHIDA

M. Ergasheva

Magistratura talabasi
O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yaponiya, Asikaga syogunligi, bakufu, samuraylar, kodifikatsiya, imperator.

Annotatsiya: Mazkur maqola Yaponiyaning o'rta asrlar davri tarixshunosligiga bag'ishlangan. Unda rossiyalik yaponshunos tadqiqotchi olimlarning Yaponiyaning o'rta asrlari tarixida o'ziga xos o'rin tutgan ikkinchi syogunlik davri – Asikaga (Muromati) sulolasi davri tarixiga oid so'nggi yillardagi ilmiy ishlari umumlashtirilib, tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

ИСТОРИЯ ЯПОНИИ ПЕРИОДА СЁГУНАТА АСИКАГА ГЛАЗАМИ РОССИЙСКИХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

М. Эргашева

студент магистратуры

*Национальный университет Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Япония, сёгунат Асикага, бакуфу, самураи, кодификация, император.

Аннотация: Данная статья посвящена историографии средневековой истории Японии. В статье рассматриваются научные труды некоторых современных российских ученых-японоведов по истории династии Асикага, второго сёгуната, имевшего особое место в истории средневековой Японии. Также с точки зрения историографии предпринята попытка раскрыть темы, связанные с некоторыми аспектами современной российской историографии.

KIRISH(INTRODUCTION)

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarix fanini o‘qitishda katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, ta’lim muassasalarida “O‘zbekiston tarixi” fani bilan bir qatorda “Jahon tarixi” fani ham o‘rganilib kelinmoqda. Zero, “Jahon tarixi” fanini o‘qitilishi yoshlarimizni dunyo mamlakatlari tarixini o‘rganishiga intilishini oshiradi, turli millat va xalqlar, ularning urfodatlari va tarixini qadrlash, umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashda, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning tarixiy tajribasidan kerakli xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar ikki ming yildan ziyodroq tarixga ega. Bu davr mobaynida Markaziy Osiyo hududidan o‘tgan Buyuk Ipak yo‘li orqali G‘arb va Sharq sivilizatsiyalari o‘rtasida iqtisodiy madaniyatlar va umuminsoniy qadriyatlar almashuv jarayoni kechgan. O‘zbekiston va Yaponiya xalqlarining an’ana, urf-odat va mentalitetlarida ham ko‘p umumiyyat va o‘xshashliklar mavjud. Shu boisdan mamlakat taraqqiyoti uchun samarali hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan davlatimiz jahon sivilizatsiyalari tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega, bugungi kunda dunyoning rivojlangan yetakchi davlatlaridan biri hisoblanuvchi Yaponiya bilan ham o‘zaro ishonch va do‘stlikka asoslangan diplomatik munosabatlarni mustahkamlab kelmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yilning 17-20 dekabr kunlari Yaponiyaga rasmiy tashrifi chog‘ida so‘zlagan nutqida ham o‘zbek va yapon xalqlarini o‘xshash milliy va axloqiy qadriyatlar bilan birga ilm-fan va tafakkurga, kamolotga doimo intilib yashash kabi ezgu fazilatlar birlashtirib turishini [1] alohida ta’kidlab o‘tildi.

Yaponiyaning o‘ziga xos boy tarixi, madaniyati, mentaliteti, an’analari mavjud. Yapon jamiyatiga xos mana shu xususiyatlarni shakllanishida o‘rta asrlar davridagi jarayonlar muhim o‘rin egallaydi. Yaponiyaning o‘rta asrlar davri tarixidagi uchta: Kamakura, Asikaga va Tokugava syogunlik davri ayniqsa, tadqiqotchi olimlar tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganiladigan mavzulardan biri hisoblanadi.

O‘rta asrlar davri tarixida Asikaga syogunligi davri alohida o‘rin tutadi. Bu davrni turli jihatlarini o‘rganish mamlakatning ijtimoiy –iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivoji, hozirgi yapon jamiyatining o‘ziga xos tomonlarini tarixiy shart–sharoitlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Mavzu tarixshunosligida Rossiya tadqiqotchi olimlarining o‘ziga xos xissasi bor. Ayniqsa, so‘nggi 20–30 yil davomida Yaponiyaning o‘rta asrlar davri tarixiga doir ko‘plab adabiyotlar nashr etildi. t.f.d.A.F.Prasol, YE.B.Saxarova, A.A.Rechkalova, E.N.Trikor kabi mualliflar tomonidan Yaponiyaning Asikaga syogunligi davridagi ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga bag‘ishlangan ishlari nashr yuzini ko‘rdi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, mavzuga tegishli ishlarning aksariyati ilmiy maqola tarzida nashr etilgan bo‘lib, Asikaga syogunligi davri tarixiga doir yirik tadqiqotlar soni ozchilikni tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Mavzuning zamонавиј Rossiya tarixshunosligida ancha yillardan buyon Yaponiyada yashab, faoliyat yuritib kelayotgan rossiyalik yaponshunos olim, Yaponiya madaniyati tarixi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasi himoya qilgan Niigat xalkaro madaniyat va axborot universiteti professori, t.f.d., A.F.Prasolning o‘ziga xos xissasi bor. Ushbu muallif tomonidan o‘rganilayotgan mavzuga tegishli bir nechta ilmiy tadqiqotlar[2] e’lon qilingan. Jumladan, uning 1999 yili nashr qilingan maqolasi[3] o‘rganilayotgan davrda Yaponiya jamiyatidagi ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda alohida o‘rin tutadi. Maqolada XII–XIV asrlarda Yaponiya ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlari, bu borada amalga oshirgan islohotlar, maktablarga qabul qilish va o‘qitish usullari, ularda o‘qitiladigan fanlar bilan bog‘liq jihatlarni batafsil yoritib berilgan.

Muallifning fikricha, Yaponiyada XII—XIII asrlardagi ta’lim tizimida ko‘proq urug‘ (klan)lar ilmiy maktablari (kagaku) keng tarqalgan. Bu maktablar o‘zidan avvalgi davrlar o‘qitish tizimiga butunlay qarama–qarshi bo‘lib, yuqori darajada tashkillashtirilgan va markazlashtirilgan edi. Ushbu tizimda asosiy o‘rinda poytaxt maktablari – daygakuryo, ten’yakuryo va gagakuryo turgan. Bu maktablarga barcha birdek qabul qilinmagan bo‘lsada, qabul qilingan o‘quvchilarga bir xil ta’lim berilgan[4].

Maqolada shuningdek, yapon oilasi va jamiyatiga xos ma’naviy–ahloqiy masalalariga ham o‘rin berilgan bo‘lib, unda “Xarbiy oqsuyaklarning ahloqiy meyorlari kodeksi XIV asr oxirlariga

kelib (Muromati davrining boshlanishi davrida) shakllangan bo‘lib, Meydzi islohotlariga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan” [5] ligini alohida ta’kidlab o‘tiladi.

2013-yilda esa t.f.d. A.F. Prasol Yaponianing XVI asrdagi harbiy-siyosiy tashkiloti va ijtimoiy tuzumi mavzusiga bag‘ishlangan maqolasi[6] ni nashr ettirdi. Unda XVI asrdagi yapon ijtimoiy hayotiga oid kam uchraydigan ba’zi faktlarni yoritib beradi. Bu vaqt “urushayotgan viloyatlar” davri deb ham ataladi. Muallif feodal urushlar davridagi mamlakat harbiy-siyosiy tashkilotining asosiy xususiyatlari, yapon jamiyatining ijtimoiy tuzilishi va asosiy ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi chegaralarning noaniqligi kabi masalalarni ko‘rib chiqadi.

Maqolada 1338-yilda Asikaga Takaudzi (1305-1358) boshchiligidagi harbiy hukumatning tuzilishi va Asikaga syogunlikning vujudga kelish jarayoni, sulola vakillarining mamlakat boshqarish tizimi, ushbu syogunlik davrida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot darajasi ko‘rsatib beriladi. Muallifning yozishicha, Onin g‘alayonlari davrida (1467—1477 yy) vaziyat keskin o‘zgargan . Jangchi urug‘-aymoq (klan)lar lar ikki guruhgaga ajragan. Bu kurash o‘n yil davom etgan. Garchi tinchlik o‘rnatilgan bo‘lsada, urushdan avvalgi barqaror hayotni to‘laligicha tiklash imkonsiz edi. Bora-bora markazdan uzoqlashish jarayon kuchayib borgan. Mamalakat markazidan uzoq bo‘lgan klanlar bilan birga, unga ancha yaqin bo‘lganlari ham o‘z mol—mulklarini poytaxtdan ko‘chirib, bu yerdan keta boshlagan[7].

1493-yilda 10-syogun Asikaga Yoshitane (1466-1523) davrida, oliy harbiy lavozim uchun kurash natijasida harbiy zodagonlarning navbatdagi bo‘linishi sodir bo‘ldi. Ko‘pgina tarixchilarning fikriga ko‘ra, bu voqeа (Meio no Seihen) Yaponiya tarixida urushayotgan provinsiyalar davri (sengoku dziday) deb ataladigan o‘zaro urushlar davrining boshlanishini belgilagan. Bu deyarli yuz yil, XVI asrning oxirigacha davom etgan. Bu jarayon Yaponiya qo‘shinini o‘sha paytdagi dunyoning eng jangovar armiyalaridan biriga aylantirgan.

A.F.Prasolning 2022-yilda[8] nashr etilgan monografiysi esa bu davr tarixi davriy va sulola vakillari ketma—ketligida bat afsil umumlashtirib mavzuni yoritib berishi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotning muhim jihatlaridan yana biri – undagi ma’lumotlarning ko‘p qismi birinchi marta o‘quvchilarga xavola etilganlidir.

Mazkur muallifning 2024-yilda nashr qilingan yana bir nashrida[9] esa “Oninki yilnomasi”ning tarjimasi o‘rin olgan bo‘lib, tarjimaga alohida sharh ham berilgan.

Mazkur “Oninki urush yilnomasi” (“Onin yillari yozuvlari”) O‘rta asrlarda Yaponiyada sodir bo‘lgan eng yirik harbiy to‘qnashuvga oid asosiy ma’lumot manbai hisoblanadi. 1467-yildan 1477- yilgacha davom etgan urush harbiy boshqaruв tizimida burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu Asikaga rejimiga qattiq zarba berdi va butun mamlakat bo‘ylab o‘zaro urushlarning nazoratsiz mexanizmini ishga tushirdi. Yilnomada urushdan bir necha yil oldin va urush paytida mamlakatning markaziy qismida sodir bo‘lgan voqealar tasvirlangan.

Muallif tomonidan manba tizimlashtirilib, rus tiliga tarjima qilingan va undagi ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilingan. Prasol manbada keltirilgan voqealarning bat afsil tavsifidan kelib chiqib, solnomaning yaratilgan davrini aniqlashga uringan. Ya'ni, ushbu solnoma urush tugaganidan keyin, taxminan 1470-yillarda yozilgan va undagi ma'lumotlarning ishonchligi e'tiborga loyiq, deb hisoblaydi. Uch o'ramdan iborat mazkur solnomaning birinchi o'ramida:

- 1) syogun Yoshimasa atrofidagi poraxo'rlik va qarindosh–urug'chilik;
- 2) syogunning shaxsiy adolatsizligi;
- 3) o'zining kenja akasining vorisi deb e'lon qilinganda;
- 4) syogun merosxo'rning tug'ilishi;
- 5) Shiba oilasidagi ziddiyat;
- 6) Xatakeyama oilasidagi ziddiyat;
- 7) Goryo ibodatxonasi dagi urushning boshlanishi bilan bog'liq ma'lumotlar o'rin olgan bo'lib, tarjimadan tashqari, muallif tomonidan sharh ham keltiriladi.

Bu tadqiqotning yangiligi solnomaning tavsifi va rus tiliga tarjimasi birinchi marta nashr etilganligidadir. Tarjima o'rta asr voqeliklarini yanada yaxshiroq tushunishni osonlashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Mavzuni o'rganishda yana bir rossiyalik tadqiqotchi, t.f.n. YE.B.Saxarovaning bir qator maqolalarini[10] ham alohida o'rni bor. Jumladan, muallifning 2023-yilda nashr qilingan Yaponiyaning Xitoy va Koreya bilan Asikaga (Muromati) davridagi munosabatlariga bag'ishlangan maqolasida[11] Rossiya tarixshunosligida deyarli o'rganlimagan mavzulardan biri – Asikaga syogunligi davridagi Yaponiya–Koreya hamda Yaponiya–Xitoy munosabatlarining asosiy bosqichlari va o'ziga xos jihatlari xalqaro munosabatlar tarixi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Muallif aynan mana shu syogunlik davridan boshlab Yaponiya bu ikki davlat bilan xalqaro aloqalar 600 yil o'tgach, yana qaytadan tiklana boshlaganini ta'kidlab o'tadi. Maqolada shuningdek, ushbu davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni tiklashning uzoq davom davom etganligi va bu jarayonning qiyinchilik bilan kechishi sabablari ko'rsatib berilgan.

A.A. Rechkalova maqolasida[12] Muromati (1333-1573) va Adzuti-Momoyama (1573-1603 yy) davrlarida yapon geraldikasi haqida fikr yuritiladi. Muallifning fikricha, Muromati davrining boshida geraldik belgilari bazasi sezilarli darajada o'sgan, geraldik belgilarning qo'llanish doirasi kengaygan, ular kuchli harbiy urug'ga mansublik belgisi sifatida ishlatila boshlagan. Bundan tashqari, XIV asr o'rtalarida gerblar kiku ("xrizantema") va kiri ("paulovnia") imperator oilasining timsoli maqomini olgan. Gerblar mintaqaviy jihatdan farq qilgan xamda shakli va hajmi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan[13].

Mavzuni o'rganishda huquqshunoslik fanlari nomzodi, YE.N.Trikozning 2020-yilda nashr qilingan maqolasini[14] ham tilga olib o'tish mumkin. Ushbu maqolada "O'rta asrlarda

Yaponiyadagi harbiy–tabaqaviy kodifikatsiya (meyoriy–huquqiy hujjatlarni qayta ishlash yo‘li bilan ularni bir butunlikka keltirish)” masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mazkur davrda Yaponiyadagi mavjud huquqiy manbalar tizimining rivojlanishi, mahalliy qonunlar, nizomlar va ustavlar, ma’muriy sud tizimini tartibga solish kabi masalalar yoritib beriladi. Maqolada Asikaga syogunligi davridagi huquq-tartibot tizimi xususida ham alohida to‘xtalib o‘tilgani diqqatga sazovor. Muallifning fikricha, “Bu davrda Yaponiyada o‘rtalashtirish asrlar huquqining manbalari tizimi sezilarli darajada o‘zgargan. Muromati davrining eng mashhur yodgorliklaridan biri - siyosiy va huquqiy “Kemmu qonunlar to‘plami” qabul qilingan. Yangi hukmonron uyning birinchi syoguni Asikaga Takaudzi (1305-1358) Kiotoda yig‘ilish o‘tkazgan. Unda yaqin maslahatchilar, oqsuyak, buddist rohiblari ishtirokida 17 moddadan iborat kodeks loyihasi ishlab chiqilgan. Bakufu rejimi va samuray hukumati, ularning obro‘-e’tiborini, xalqning ishonch darajasini oshirish va fuqarolik nizolarini oldini olish, shuningdek, Kiotoda jinoyatchilik darajasini pasaytirish va viloyatlarda adolatli sud jarayonini ta’minlash kabi ezgu maqsadni ko‘zlagan edi. Sengoku davrida mahalliy-huquqiy manbalarning soni va ahamiyati - turli knyazliklarning va klanlar kodekslari, avtonom shaharlar va savdo uylari nizomlari keskin oshgan. Mahalliy daymyolar tomonidan qonun ijodkorligining faollashishi natijasida esa mahalliy qonunchilikni tizimlashtirish, ma’muriy va sud tizimini tartibga solish maqsadida nashr etilgan o‘ndan ortiq , jumladan "Koshu Xatto no Shidai", "Rokkaku-shi Shikimoku", "Yuki-shi Shinxatto", "Imagava Kanamokuroku", "Imagava Kanamokuroku Tsuika", "Sosho Jomoku ", "Jinkaishu" singari yirik kodekslar yaratilgan” [14].

Tadqiqotchi shuningdek, Asikaga syogunligi davrida birinchi marta mulk huquqi meyorlari, yerga egalik instituti va uni muhofaza qilish vassal xulq-atvor normalari, ularning vazifalari va harbiy xizmat qoidalari, qochoq dehqonlarni ta’qib qilish, protsessual normalar va sud ishlarini yuritish tartibi, amnostiya e’lon qilish kabi alohida guruhlarga ajratilganligi[15] to‘g‘risida ham ma’lumot berib o‘tadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Asikaga sulolasasi davri zamonaviy tarixshunosligiga oid ushbu maqolada o‘rganilayotgan tadqiqot mavzusiga tegishli u yoki bu masalasini ochib berish, o‘rganilayotgan davr voqealari yaxlit bir butun jarayon doirasida tushunish imkonini berdi. Tarixiylik tamoyili tarixshunoslik tadqiqotidagi asosiy tamoyillardan biri bo‘lib, Yaponiyada Asikaga davri tarixiy jarayonlarini o‘rtalashtirish asrlar davri xususiyatidan kelib chiqib rivojlanishi, o‘zgarib borishini ko‘rsatib berdi.

Maqolada shuningdek, davriy, tarixiy–qiyosiy, tizimlilik metodlaridan qo‘llanildi. Jumladan, tarixiy–qiyosiy va tizimlilik metodlari yordamida davriy ketmакetlikda Yaponiya tarixida mavjud bo‘lgan boshqa syognlardan Asikaga syogunligining farqli jihatlari hamda

ushbu masalada ilmiy tadqiqot olib borgan rossiyalik mualliflarning ilmiy ishlari tizimlashtirilgan holda tahlil qilinib, ulardagi umumiylig va o‘ziga xos jihatlar ko‘rsatib berildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, Yaponiyaning o‘rta asrlar davri tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan Muromati davri – Asikaga so‘yogunligi tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlar qatorida rossiyalik mualliflarning ilmiy ishlari salmoqli o‘ringa ega. Mazkur tadqiqotlar mualliflarining mavzuga doir yondoshuvlari sovet davri tarixchilarining sinfiy qarashlaridan farq qiladi. Qolaversa, yuqorida tilga olingan va boshqa yaponshunos rossiyalik tarixchilar tomonidan bugungi kunga qadar ko‘plab manba va adabiyotlar tarjima qilinib ilmiy iste’molga kiritilgan, umuman o‘rganilmagan yoki yetarlicha tadqiq etilmagan masalalar yoritib berilgan.

Ularda yapon millatiniing to‘liq shakllanishi uchun madaniy shart–sharoitlar aynan mana shu syogunlik davrda sodir bo‘lganligi, shu bilan birga bu jamiyatdagi to‘qsonga yaqin daymyolar yaxlit davlatga birlashish imkoniyati yaratilganligi hamda ushbu mentalitet kelajakda deyarli uch asr hukmronlik qilgan uchinchi syogunlik – Tokugavalar sulolasining vujudga kelishiga zamin yaratib bergenligi ko‘rsatib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev Nagoya universitetiga tashrif buyurdi.

URL:<https://www.pv.uz/oz/news/prezident-uzbekistana-posetil-universitet-nagoi> 6. O‘zbekiston Prezidenti Yaponiya Imperatori bilan uchrashdi. URL: https://pv.uz/oz/news/ozbekistonprezidenti-yaponiya-imperatori-bilan_uchrashdi

2. Прасол А. Японское образование и воспитание в XII—XVI вв // 1999; Ўша муаллиф. Японское образование и воспитание в XII-XVI вв // 1999. <https://cyberleninka.ru/article/n/yaponskoe-obrazovanie-i-vospitanie-v-xii-xvi-vv/pdf>. Ўша муаллиф Военно-политическая организация и социальный уклад Японии в XVI веке 2013 // <https://cyberleninka.ru/article/n/voenno-politicheskaya-organizatsiya-i-sotsialnyy-uklad-yaponii-v-xvi-veke> Ўша муаллиф. Сёгуны Асикага. Закат Династии. – М., 2022. 288 с; Ўша муаллиф. Военная хроника Онинки. Перевод и комментарий (первый свиток // <https://cyberleninka.ru/article/n/voennaya-hronika-oninki-perevod-i-kommentariy-pervyy-svitok>

3. Прасол А. Японское образование и воспитание в XII—XVI вв // 1999. <https://cyberleninka.ru/article/n/yaponskoe-obrazovanie-i-vospitanie-v-xii-xvi-vv/pdf>

4. Прасол А. Японское образование......

5. O‘sha joyda.

6. Прасол А.Ф. Военно-политическая организация и социальный уклад Японии в XVI веке/ 2013 // <https://cyberleninka.ru/article/n/voenno-politicheskaya-organizatsiya-i-sotsialnyy-uklad-yaponii-v-xvi-veke>
7. Прасол А.Ф. Военно-политическая организация и социальный уклад Японии в XVI веке...
8. Прасол А. Сёгуны Асикага. Закат Династии. – М., 2022. 288 с.
9. Прасол А.Ф. Военная хроника Онинки. Перевод и комментарий (первый свиток // <https://cyberleninka.ru/article/n/voennaya-hronika-oninki-perevod-i-kommentariy-pervyy-svitok>
10. Сахарова Е.Б.Внешние связи Японии с Китаем и Кореей в эпоху Муромати// Связь с Китаем и Кореей. 08.07.202319–32. 08.07.2023 // Японские исследования. 2023. № 4. С. 18–32. DOI: 10.55105/2500-2872-2023-4-18-32 ; O'sha muallif. «Записи о драгоценных для страны добрососедских отношениях». Документы за период правления сёгунов Асикага Ёсимицу и Асикага Ёсимоти // История и культура Японии. Вып. 15.Москва: Издательский дом НИУ ВШЭ. 2023. С. 272–291.; O'sha muallif. В поисках священных текстов: печатный буддийский канон в контексте японо-корейских официальных контактов в эпоху Муромати // Вопросы философии. 2022. № 11. С. 156–163.; O'sha muallif. Посольство из Корё в Японию 1366–1367 гг. // Ежегодник Япония. 2019 Т. 48. Москва: АИРО-XXI. 2019. С. 155–174.; O'sha muallif. Японо-китайские отношения в 1368–1419 гг. // Электронный научно-образовательный журнал «История». 2020. Т. 11. № 11 (97).
11. Сахарова Е.Б.Внешние связи... – С. 18.
12. Речкалова А.А. Японская геральдика эпох Муромати и Адзути-Момояма” мақоласида Муромати (1333-1573) ва Адзути-Момояма (1573-1603).Ежегодник Япония. 2017;46: 258-268
13. O'sha joyda.
14. Трикоз Е.Н. Военно-сословные кодификации в средневековой Японии: эпоха первых сёгунатов // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Юридические науки. 2020. Т. 24. № 4. С. 965–984. DOI: 10.22363/2313-2337-2020-24-4-965-984.
15. Трикоз Е.Н. Военно-сословные кодификации в средневековой Японии ...